

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

ARXITEKTURA FAKULTETI

“ARXITEKTURA LOYIHALASH” kafedrası

BINO VA INSHOATLAR TIPOLOGIYASI fanidan

KURS ISHI

MAVZU: DUNYODAGI ENG QIMMAT UYLAR

GURUH: 2-16 Au

TALABA: ISRAILOV B.

RAHBAR: Shukurullo Yunusov Hayrullayevich

TOSHKENT – 2017

DUNYODAGI ENG QIMMAT UYLAR

Several thin, parallel white lines of varying lengths and slopes are positioned on the right side of the image, extending from the top right towards the bottom left, creating a sense of motion or design elements.


Dunyoning 25 ta davlatida savdoga qo'yilgan eng qimmatbaho uylar ro'yxati bilan tanishasiz.

Ro'yxatni kuzatish jarayonida shunga amin bo'lamizki, muhtasham uy-joylarning narxi mazkur uy qaysi mamlakatda joylashganiga qarab farqlanadi. Sotuvga qo'yilgan eng qimmatbaho uy AQShda joylashgan bo'lib, uning narxi 195 million dollarni tashkil etadi, Yaponiyadagi ana shu maqomdagi uyning narxi esa 9 millionga teng.

Argentina: Qurilganiga 100 yil bo'lgan, qayta tiklangan uy, kolonial arxitekturaga xos bo'lib, Buenos-Ayresda joylashgan. U 34,5 million dollarga baholangan.



Avstraliya: Qirg'oq bo'yida joylashgan alohida chiqish qismi va temir darvozaga ega bo'lgan zamonaviy uy 30 million turadi.



Bagama orollari: Paradayz orollari plyajida joylashgan uyda golf maydonchasi ham bor. Narxi 22 million dollarga teng.



Barbados: mazkur hashamatli villa va uning atrofidagi 1 gektardan ortiq maydon 55 million dollarga baholangan. Erga qo'shimcha tarzda yuz metrli Gibbs-Bich oq qumli plyaj ham bor.



Braziliya: Lyuks klassidagi "L'Essence Jardins" turar-joy kompleksi San-Pauluga qaragan 22,4 millionga baholangan.



Kanada: Kanadadagi tog'larda joylashgan, otda yurishga mo'ljallab jihozlangan 65 gektar erga ega, 30 million dollarga baholangan.



Gonkong: Viktoriya qo'ltig'ida joylashagan, tomida ayvonchaga ega uy 105,6 million dollar turadi.



Frantsiya: Kanndagi 2000 m. kv. dan ortiq maydonga ega villa 112 million dollarga baholangan. Unda 32 ta xona va Alp tog'lariga qaragan panoramani ko'rish imkoniyati mavjud.



Germaniya: Loreley vodiysidagi mazkur villa 22,3 million dollar turadi. Uy egasi Reyn daryosining isitiladigan basseynida suzib, rohatlanishi mumkin.



Hindiston: Bombay shahrida joylashgan, 14 ta yotoqxonaga ega uy 21,8 million dollarga baholangan.




Isroil: O'rta er dengizi qirg'oqlarida joylashgan muhtasham zamonaviy villa 33 million dollarga baholanmoqda.



Italiya: Neapolitan qo'ltig'iga qaragan uy 10 gektardan ortiq maydonda zaytun ko'chatlari, uzumzor va tsitrus mevali bog'lar orasida joylashgan. Unda bir necha binolar bor: asosiy binoda to'rt qavat va ikkita lift mavjud. Bularning barchasi 61 million dollarga baholangan.



Yaponiya: mazkur uy bambukli o'rmon tepaligida joylashgan. U 9 million dollar turadi.



Meksika: Kabo-San-Lukasdagi Pedregal hamjamiyatidagi tepalikda joylashgan villa 13,5 million turadi.



Monako: dunyodagi eng qimmatbaho xonadonlardan biri. Tour Odeon Tower osmono'par binosining yuqorisida joylashgan Sky Penthouse besh qavatdan iborat majmua bo'lib, O'rta er dengiziga qaragan. Uning narhi 400 million dollarga teng. Ammo bu suv tepalikdan uchib tushishini tasavvur qilib ko'ring-a!



Marokash: “Palmalar ostidagi uy” maydoni 1200 m kv. ga teng bo'lib, u 5 gektarli bog'lar orasida joylashgan, narxi 65 million dollarga teng.



Norvegiya: Mumtoz ingliz uslubidagi saroy 9,5 million dollar turadi, u Bargaen qirg'oqlarida joylashgan.



Fillipin: Makati shahrining Forbes Park turar-joy hamjamiyatidagi 9 ta yotoqxonaga ega bo'lgan uy 22,5 million dollarga baholangan.



Rossiya: Nikolinodagi mazkur villaning bir kvadrat metri 10 ming dollarga yaqin turadi. Uning umumiy narxi taxminan 100 million dollarga teng.



JAR: Keyptauning eng yuqori darajali turar-joy rayonida joylashgan "Enigma" saroyida Olimpiya o'yinlari basseynlari hajmidagi basseyn bor. Narxi 30 million dollarga teng.



Ispaniya: Mayorkadagi bu villa qo'ltiqqa qaragan bo'lib, isitiladigan yopiq basseyn, spa-salon va vertolyot qo'nish maydonchasiga ega. Narxi 59 million dollarga teng.



Shveytsariya: Jeneva ko'li qirg'oqlaridagi 60 gektar erga ega bo'lgan, Monblanga qaragan muhtasham qasr 131,5 million dollarga baholanmoqda.



BAA: umumiy maydoni 2000 m. kv. ga teng, dizayni italyancha uslubda qurilgan, Dubayga qaragan saroy 47,6 million dollar narx bilan baholangan.



Buyuk Britaniya: 260 m. kv. maydonga ega zamonaviy xonadon mashhur London Gayd-parkida joylashgan. Intererda qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ipak gilam va pardalar mavjud. Xonadon 102 million dollarga baholangan.



AQSh: xususiy vino tayyorlash uchun 10 gektar maydondagi uzumzorga ega bo'lgan, Los-Anjelesdagi "Palazzo di Amore" 195 million dollarga baholangan.

